

YUNESKO ishchi guruhining tashrifi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasiga Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lif, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO) ixtisoslashgan muassasasi xodimlari Sirin Elchi xonim (YUNESKOning Parijdagi shtab-kvartirasi Ilmiy va texnologik dasturlar bo'yicha siyosiy maslahatchisi) va Kristina Tovmasyan xonim (YUNESKOning Olmaota shahridagi tabiiy fanlar bo'yicha mutaxassisasi) tashrif buyurdi. Mehmonlarni O'zR FA vitse-prezidenti B.Abduxalimov va bo'lim boshlig'i J.Toshpo'latov kutib oldi.



Uchrashuvda tomonlar O'zbekistonda "Fan, texnologiya, innovatsiya" loyihasining roli va ahamiyati, uning barqaror rivojlanishiga erishish, mamlakatdagi ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish masalalari muhokama qilindi.